



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SHO‘RCHI TUMANI HOKIMINING
F A R M O Y I S H I

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500 tel.: (+99876) 457-41-00, shurchi_t@exat.uz

2022 года «17» мая

59-8-120-F/22

Хокимият Шурчинского района

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Administratsiyasi rahbarining 2022 yil 23 martdagi №02-RA 1/1-380 sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Agentligi Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasining 2022 yil 28 apreldagi 01/07-11/115 sonli hati ijrosini ta‘minlash maqsadida, tuman mahalliy budjetining 2022 yil zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan

1. O‘zbekiston Respublikasi Administratsiyasi rahbarining 2022 yil 23 martdagi 02-RA 1/1-380 sonli topshirig‘ining 3.1 bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Surxondaryo viloyat filialining 2022 yil 11 maydagi OV65605207 sonli xati va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish Agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2022 yil 28 apreldagi 01/07-11/115 sonli hati ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2022 yil zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman hokimi o‘rinbosarlarining 2021 yil eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash natijalariga ko‘ra yuqori ko‘rsatkichlariga erishgan Norqulov Jasur Qahharovich va Mustafaev Jamshid Baxtiyorovichlarni bazaviy hisoblash miqdorining 80 (sakson) baravari miqdorida rag‘batlantirilsin.

3. Yuqoridagi xodimlarni rag‘batlantirilishi bo‘yicha, Xalq Deputatlari tuman kengashiga hisobot berish sharti bilan taqdim etsin.

4. Tuman Moliya bo‘limi mudirining 1-o‘rinbosari (D.Mirzaev tuman hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari bo‘yicha budgetga tegishli o‘zgartirish kiritish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (F.Mamatqulov) tegishli tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (E.Aytuganov) ajratilgan mablag‘larning qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta‘minlasin.

7. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Norqulov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Xudoyberganov B.X